

SHARQ VA G'ARBDA XALQARO HUQUQ VUJUDGA KELISHINING O'ZIGA XOSLIKARI

Abdug'afforov Shavkat Komilovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik
yo'nalishi 3-bosqich talabasi
shavkatabdugafforov7@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD. **Imomova.N.A**

Annotasiya: Ushbu maqolada Sharq va G'arb olamida xalqaro huquqning vujudga kelishi, uning o'ziga xosliklari, bir-biridan ajralib turuvchi farqlari va umumiyliklari tahlil qilinadi.

CHARACTERISTICS OF THE EMERGENCE OF INTERNATIONAL LAW IN THE EAST AND THE WEST

Annotation: This article analyzes the emergence of international law in the Eastern and Western world, its peculiarities, distinctive differences and commonalities.

ОСОБЕННОСТИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА НА ВОСТОКЕ И ЗАПАДЕ

Аннотация: В данной статье анализируется возникновение международного права в восточном и западном мире, его особенности, отличительные различия и общности.

Kalit so'zlar: Xalqaro huquq, Muhammad Saraxsiy, Hugo Grotsiy, islom huquqi, Xitoy, Hindiston

Key words: International law, Muhammad Sarakhsyi, Hugo Grotius, Islamic law, China, India

Ключевые слова: Международное право, Мухаммад Сарахси, Гуго Гроций, исламское право, Китай, Индия.

Xalqaro huquq fani xalqaro huquqiy amaliyot va xalqaro huquqiy ta'limotlar asosida shakllangan fan sohasidir. Mazkur fan xalqaro huquqning asosiy mazmun-mohiyati, tamoyillari, rivojlanish qonuniyatları va istiqbolini belgilovchi qarashlarni o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, dunyoda xalqaro

huquq vujudga kelishi va rivojlanishi, bundagi alohida shart-sharoitlar har doim ushbu sohada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, Sharq va G'arbda xalqaro huquq tamoyillarining shakllanish tarixi, xususiyatlarini o'rghanish hozirgi va kelajak davr huquqiy asoslari uchun fundamental o'ringa egadir.

Tarix bu san'at demakdir, ammo bu betakror san'at hamisha ham o'z "tomoshabinlari"ga haqiqiy - san'at asarlarini taqdim etavermaydi. Ba'zan tasvir ortida butunlay boshqa bir tasvir bor ekanligini anglamoqni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, tarixni obyektiv dalillar asnosida o'rghanish har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda. Xususan, xalqaro huquqning vujudga kelishi bo'yicha ham juda ko'plab bir-biridan farq qiluvchi ma'lumotlar mavjud. Globallashuv jarayonlari shiddat bilan davom etayotgan bir davrda xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro huquq ajralmas bir qismga aylanib ulgurgan. Dunyoda tinchlik va xavfsizlik masalalari yuzasidan xalqaro huquq sohasida mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar taqazo qilinadi. Biror bir sohani chuqur o'rghanish va uning potensial strukturalarini ishlab chiqish, albatta, uning asl kelib chiqishi, rivojlanish shart-sharoitlarini anglashdan boshlanadi. Xalqaro huquqning ham qoidalari, tamoyillari va tushunchalarining kontekstli tarixi aniq va obyektiv bo'lishi lozim. Chunki tushunchalar xalqaro huquq mohiyatini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, o'tmishdagi voqealarni qayta ko'rib chiqish va dekonstruksiya qilish odamlarning zamonaviy xalqaro huquq masalalarini idrok etishiga ta'sir qiladi va xalqaro huquq aslida qanday ekanligini ochib beradi. Xalqaro huquq tarixi bo'yicha haliyam biror aniq to'xtamga kelinmagan bo'lib, uning bir ildizi G'arbiy Evropa nasroniyлari davriga, ikkinchisi esa Sharqning qadimiy sivilizatsiyalariga borib taqladidi. Xalqaro huquqning kelib chiqishi olimlar o'rtasida tortishuv masalasi bo'lib qolmoqda. Tarixni davrlashtirish orqali o'rghanish esa muammoli bo'lib, subyektiv qarashlar hosil bo'lishiga olib kelmoqda. Asrlar davomida dunyo Yevropa va Yevropa bo'lmagan davlat sifatida ajratib kelindi. Shu nuqtai nazardan, maqolada xalqaro huquq tarixini "Oksidentalizm" va "Orientalizm" nazariyalari asosida tavsiflash ma'qul ko'rildi.

Sharqda xalqaro huquq: Yevropa xristian adabiyoti va mutafakkirlari xalqaro huquqning kelib chiqishini taxminan 400-500 yil oldinga olib borib taqashadi. Garchi Xitoy, Hindiston, Misr va Ossuriya kabi qadimiy sivilizatsiyalarning davlatlararo munosabatlarida xulq-atvor qoidalariga ega bo'lganlar va biz hozirda ushbu qoidalarni xalqaro huquq deb nomlaymiz. Birinchi misollar qatorida Mesopotamiyaning Lagash va Umma shahar-

davlatlari o'rtasidagi tinchlik shartnomalari (taxminan miloddan avvalgi 2100-yil) va Misr fir'avni Ramzes II va Xet shohi Xattusilis III o'rtasida eramizdan avvalgi 1258-yilda tuzilgan shartnomani keltirish mumkin.¹⁷ Sharqiy O'rta yer dengizidan tortib Sharqiy Osiyogacha bo'lgan butun dunyo bo'ylab davlatlararo turli xil ko'rinishdagi pakt va bitimlar tuzilgan, va muzokaralar olib borilgan. Xalqaro huquqqa bag'ishlangan birinchi fundamental asar XI asrda huquqshunos olim – Muhammad ibn Ahmad Abi Sahl Abu Bakr Shamsul-Aimma as-Saraxsiydir tomonidan yozilgan "Sharh al-Siyar al-Kabir" ("Xalqaro huquqqa oid sharhlar") asaridir. Unda birinchi marta xalqaro huquqqa huquqning mustaqil sohasi sifatida klassik ta'rif bergan.¹⁸ Xalqaro huquq fan, huquqiy fanlarning alohida tarmog'i sifatida e'tirof etilishi lozimligini bayon etgan. Muhammad ibn Ahmad Abi Sahl Abu Bakr Shamsul-Aimma as-Saraxsiy islam dunyosida eng shuhurat qozongan ulamolardan biridir. Xususan, uning islam manbashunosligi va usuli fiqh sohasidagi ishlari hozirgi kunga qadar xorijda chop etilgan deyarli barcha darslik va qo'llanmalarda tilga olinadi. Uning "al-Mabsut" ("al-Mabsut") va "Usul al-Fiqh" ("Usul al-Fiqh") asarlari islam huquqi sohasida asosiy darslik sifatida o'rganiladi. Imom Saraxsiy asarlarida xalqaro huquqning asosiy tushunchalari va tamoyillari, deyarli barcha sohalari va mavzulari, kategoriyalari va institutlari o'z aksini topgan. Islam xalqaro huquq ta'lilotida shartnoma tushunchasiga birinchi bo'lib klassik ta'rif Imom Saraxsiy tomonidan berilgan. Saraxsiyning "Sharh al-siyar al-kabir" asarida shartnoma tushunchasi, shartnomalarning amal qilish muddati, sanasi, shartnomaviy huquq va majburiyatlar qamrovi, shartnomalarning fosiqligi yoki haqiqiyligining mezonlari va boshqa masalalar atroflicha yoritilgan. Saraxsiy asarlarida diplomatik huquqdagi har bir holat aniq-tiniq izohlanadi. elchiga nisbatan davlat rahbari va mahalliy hukmdorlarning huquq va majburiyatları ham ko'rsatib beriladi. Shuningdek, uning kitoblarida urush olib borish qoidalari va urush jabrdiydalarini himoya qilish masalalari batafsil yoritilgan.

Islam huquqi: Islomning gumanistik g'oyalari islam xalqaro huquqi – siyarga singdirilgan. "Siyar" tushunchasi islam millatining boshqa xalqlar bilan xalqaro aloqalariga oid qoida va usullarining umumiy majmuidir yoki musulmonlarning xoh davlatlar, xoh individlar miqyosida bo'lsin, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar bilan aloqalarida riosa etilishi lozim bo'lgan qoidalarni belgilab beruvchi islam huquqining alohida sohasidir. Islam xalqaro huquqi bu – XX asrga kelib to'liq shakllangan va bugungi kunda samarali amal qilib kelayotgan universal xalqaro huquqdan bir necha yuz

¹⁷ <https://peacepalacelibrary.nl/research-guide/history-international-law>

¹⁸ <https://yuz.uz/uz/news/saraxsiy--xalqaro-huquq-asoschisi>

yilliklar oldin, VIII-X asrlarda paydo bo'lib, qariyb ming yil davomida musulmon davlatlarining o'zaro va ularning boshqa madaniyatga mansub davlatlar va xalqlar bilan aloqalarini tartibga solib kelgan huquqiy tizimdir. Universal xalqaro huquqning shakllanishi natijasida u global ahamiyatini yo'qotdi va bugungi kunda ayrim islom davlatlari orasida muayyan sohalardagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi mintaqoosti huquqiy tizimga aylandi. Biroq uning asosiy tamoyillari va qoidalari universal xalqaro huquqqa singdirilgan hamda ular xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda hanuz foydalanib kelinmoqda. Bu musulmon davlatlari bilan tuziladigan xalqaro shartnomalarda, odad huquqida, xalqaro sud amaliyotida va boshqa shakllarda ko'zga tashlanib turadi. Islom xalqaro huquqining o'ziga xos xususiyati u islom diniy e'tiqodi bilan paydo bo'lgan edi. Bu e'tiqodni yoyish va universallashtirish islomning o'sha paytdagi asosiy maqsadi ekan, jihad urushlari yog'dusida islom xalqaro huquqi xususida urush harakatlarini olib borish va qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlash qoidalaring majmuasi shaklidagi dastlabki tasavvurlar ham paydo bo'lgan. Biroq keyinchalik urushlarning nihoyasi ko'ringach, boshqa millatlar bilan tinchlik holatida hamjihat bo'lib birga yashash va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish zarurati oydinlashib borgan. Musulmon davlatlar va jamoalar asta-sekin boshqa millatlar bilan tinch-totuv va bahamjihatlikda yashashga intilib bordilar, boshqa millatlar bilan tinchlik yoki hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomalar soni orta bordi va bu doimiy tusga kirdi. Hozirda ko'pchilik huquqshunoslar tomonidan qabul qilingan mezonga ko'ra, islom huquqi tarixi uch davrga bo'lib o'rganiladi: islom huquqining shakllanish davri (formative period) – hijriy 150-261 (milodiy 767-874), mumtoz davri (classical period) – hijriy 300-1213 (milodiy 912-1789-yillar) va yangi davri (modern period) – XIX asrdan, ya'ni 1800-yildan hozirgi kungacha.¹⁹

G'arbda xalqaro huquq: Xalqaro huquqiy ta'lilotlar ibtidosi haqida gap ketar ekan, xalqaro huquqning vatani Yevropa ekaniga ishora qilinadi. G'arb xalqaro huquqiga asos solgan olimlar sifatida XV-XVI asrlarda yashab o'tgan Fransisko de Vitoria, Alberiko Jentili, Per Beyl, Baltazar Ayyala kabi olimlarning nomlari keltiriladi. 1625-yilda chop etilgan "Urush va tinchlik huquqi to'g'risida" (De Jure Belli ac Pacis) asari bilan shuhrat qozongan niderlandiyalik ilohiyotchi va huquqshunos Hugo Grotsiy (Hugo Grotius, 1583-1645) aksariyat milliy va xorijiy adabiyotlarda "xalqaro huquq otasi" sifatida tafsiflanadi. Butunlay Yevropa xristian jamiyati chegarasi ostida shakllangan XX asr Yevropa xalqaro huquqi butun dunyo "xalqaro huquq"i sifatida

¹⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/islom-huquqining-zamonaviy-rivojlanishi>

qaralgan. Fransuz adibi va mutafakkiri J.J. Russo (1712—1778) zamonidan buyon urf bo'lib kelayotgan nuqtayi nazarga ko'ra, huquqning substansiysi, ya'ni tub mohiyati qat'iylik va iroda bo'lishi darkor.²⁰ Xalqaro-huquqiy normalarda subyektlar, ya'ni davlatlarning xohish-irodalariga muvofiq tarzda shakllangan umumiyligi iroda o'z ifodasini topadi.²¹ Davlatlar irodasi uning organlari faoliyatida o'z aksini topadigan mutlaqo asosli voqelikdir. Bu xalqaro amaliyotda, shu jumladan sudlov amaliyotida ham azaldan e'tirof etib kelinayotgan qoidalardan biri hisoblanadi. Xalqaro odil sudlov doimiy palatasining "Lotos" paroxodi ishi bo'yicha 1926-yildagi qarorida shunday deyilgan: "Xalqaro huquq mustaqil davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Shu bois, davlatlar uchun majburiy bo'lgan huquq normalari ana shu davlatlarning konvensiyalar yoki hammaga rasm bo'lib qolgan urf-odatlarda o'z ifodasini topgan erkin xohish-irodasi tufayli dunyoga keladi". Xalqaro huquqning kelib chiqishi va tarixi haqida gap ketar ekan, mutafakkirlar doimo G'arbga urg'u bergenlar. Go'yo G'arbda xalqaro huquqning yaratilishi va qayta ochilishi amalga oshirildi. Xatto Yevropa adabiyoti tarixdagi Yevropa shaharlari, urushlari va inqiloblarida xalqaro huquqning tarixini ifodalashga qaratilgan. Olimlar asosan 1648-yilgi Vestfaliya tinch shartnomasi, 1814-yilgi Vena konvensiyasi, 1899-1907-yillardagi Gaga konferensiyaning dalil qilib keltirishgan. Nafaqat mutafakkirlar balki, Fransisko de Vitoriya, Fransisko Suares, Alberiko Gentili, Jan Bodin, Gyugo Grotius kabi yevropalik faylasuflar ham o'z asarlarida xalqaro huquqning kelib chiqishini Yevropa shaharlari, madaniyati, urushlari va inqiloblariga bog'liq holda ifodalaganlar.²² XX asrning ikkinchi yarmi xalqaro huquqning rivojlanishida yangi sifat bosqichini boshlab berdi. Bu xalqaro-institutsional tizimning takomillashuvida, norma ijodkorlik jarayonidagi tub o'zgarishlarda, xalqaro huquq manbalari tizimining kengayishida, xalqaro huquq subyektlari sonining oshishida yaqqol aks etdi. Fan-teknika sohasidagi misli ko'rilmagan yutuqlar, uchuvchi va suzuvchi qurilmalarning yangi avlodi, yirik inshootlar va qudratli intellektual salohiyatga ega mikrosxemalarning paydo bo'lishi xalqaro-huquqiy munosabatlar tizimini murakkablashtirdi. Xalqaro huquqning yangi obyektlari vujudga keldi. Asrimiz boshidagi global mashuvning yangi to'lqini barcha sohalarda bo'lgani kabi xalqaro huquq istiqboliga ta'sir etuvchi omillar qamrovini kengaytirdi. Xalqaro huquqning universallashuvi, ya'ni umumbashariy ko'lam kasb etish jarayoni yanada kuchaydi. Endilikda

²⁰ History of international law. p.43

²¹ Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. 2007. 8 b.

xalqaro huquq normalari oddiy individlarning huquqlarini himoya qilish barobarida ularning kundalik hayotiga tobora chuqurroq ta'sir ko'rsatmoqda. Individ xalqaro huquq subyektiga aylandi, deyish uchun barcha asoslar yetilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.** <https://peacepalacelibrary.nl/research-guide/history-international-law>
- 2.** <https://yuz.uz/uz/news/saraxsiy--xalqaro-huqua-asoschisi>
- 3.** <https://cyberleninka.ru/article/n/islom-huquqining-zamonaviy-rivojlanishi>
- 4.** History of international law. p.43
- 5.** Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasи asoslari. 2007. 8 b.